

JINOYAT PROTSESSIDA RAQAMLI DALILLAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: QIYOSIY TAHLIL

Eshonqulov Sarvarbek Sadriddinovich

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli dalillar tushunchasi, turlari va ularning boshqa dalillardan farqli jihatlari yoritiladi. Raqamli dalillar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari Jinoyat-protsessual kodeks va xalqaro standartlar doirasida tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli dalillarning maqbulligi mezonlari va tergov jarayonida raqamli dalillar bilan ishlashda isbot qilish subyektlariga qo'yilgan talablar kompleks tarzda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli dalillar, elektron ma'lumot, Jinoyat-protsessual kodeks, ISO/IEC 27037:2012, maqbullik, isbot qilish subyektlari, kiberjinoyat, axloqiy talablar.

Аннотация

В данной статье рассматривается концепция цифровых доказательств, их виды и отличия от других видов доказательств. Специфика работы с цифровыми доказательствами анализируется в рамках Уголовно-процессуального кодекса и международных стандартов. Также всесторонне изучаются критерии допустимости цифровых доказательств и требования к субъектам доказательств при работе с цифровыми доказательствами в процессе расследования.

Ключевые слова: цифровые доказательства, электронная информация, Уголовно-процессуальный кодекс, ISO/IEC 27037:2012, допустимость, субъекты доказательств, киберпреступность, этические требования.

Abstract

This article discusses the concept of digital evidence, its types and their differences from other evidence. The specific features of working with digital evidence are analyzed within the framework of the Criminal Procedure Code and international standards. Also, the criteria for the admissibility of digital evidence and the requirements for subjects of proof when working with digital evidence in the investigation process are comprehensively studied.

Keywords: Digital evidence, electronic information, Criminal Procedure Code, ISO/IEC 27037:2012, admissibility, subjects of proof, cybercrime, ethical requirements.

Bugungi kunda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib borishi bilan jinoyatlarning ham yangi ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Xususan, oxirgi yillarda nafaqat xorijiy mamlakatlarda, balki O'zbekistonda ham kiberjinoyatlarning sodir etilishi boshqa jinoyatlarga qaraganda sezilarli ko'paydi. Kiberjinoyatlar asosan raqamli qurilmalar orqali sodir etilishi sababli kiberjinoyatlarni tergov qilishda raqamli dalillarning o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda.

21.11.2024 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

to'g'risida"gi O'RQ-1003 sonli Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga raqamli dalillar tushunchasini, raqamli dalillarni to'plash, taqdim etish, mustahkamlash, ko'zdan kechirish, tekshirish va baholash, ularni saqlash, qaytarish hamda yo'q qilish tartibini belgilovchi o'zgartirish va qo'shimchalar¹ kiritildi.

Jinoyat protsessual kodeksiga ko'ra, "Ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlar, shu jumladan elektron tarzdagi fayllar, audio-, videoyozuvlar, internet jahon axborot tarmog'ida saqlanayotgan ma'lumotlar, shuningdek boshqa elektron ma'lumotlar raqamli dalillardir"². Raqamli dalillarga – ish uchun ahamiyatli bo'lgan bank tranzaksiyalari, elektron pochta xabarlar, brauzer va qidiruv tarixi, raqamli fotosuratlar va videolavhalar, server jurnallari, IP manzillar misol bo'lishi mumkin.

Raqamli dalillarning boshqa dalillardan farqi shundaki, Jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, raqamli dalillarni olishda ekspert ishtiroki talab etiladi. Shuningdek, raqamli dalillar moddiy qiymatga ega emas. Ya'ni, raqamli dalillar raqamli qurilmalarda elektron ma'lumot ko'rinishida mavjud bo'lganligi bois, ularni faqatgina ko'z bilan idrok etish mumkin.

Raqamli dalillar bilan ishlashda ehtiyotkorlik juda muhim. Boisi, apparat nosozligi, dasturiy ta'minotning ishdan chiqishi yoki inson xatosi tufayli, hatto kichik bir xato ham raqamli dalillarning yo'qolishi yoki yaroqsiz holatga olib kelishi mumkin³.

Jinoyat-protsessual qonunchiligimizga ko'ra, raqamli dalillar JPK da mavjud tergov harakatlarini o'tkazish orqali olinishi belgilab qo'yilgan. Bu tergov harakatlariga: hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tanib olish uchun ko'rsatish, guvohlantirish, ko'rsatuvlarni hodisa yuz bergan joyda tekshirish, olib qo'yish, tintuv yoki eksperiment o'tkazish⁴ misol bo'la oladi. Raqamli dalillarni saqlash bo'yicha ham JPK da isbot qiluvchi subyektlarga aniq talablar qo'yilgan bo'lib, isbot qilish subyektlari "raqamli dalillarni saqlash, shuningdek ushbu dalillarning ekspertizaga yuborilganligi yoki jinoyat ishi boshqa tergovga kadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov organiga, prokurorga yoxud sudga o'tkazilganligi munosabati bilan ularni boshqa joyga yuborish chog'ida raqamli dalillar yo'qolishining, shikastlanishining, buzilishining, bir-biriga qo'shib yoki aralashib ketishining oldini olish choralari ko'rilishi kerak"⁵.

Raqamli dalillarni saqlash bo'yicha xalqaro standartlarda ham so'z boradi. Xususan, ISO/IEC 27037:2012 xalqaro standartda Raqamli dalillarning tergov jarayonida samarali qo'llanilishi ularni to'g'ri saqlash choralari bevosita bog'liqdir. Shu sababli, raqamli dalillarni saqlashda ularning yaxlitligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Saqlash jarayoni raqamli dalillar hamda ularni o'z ichiga olgan raqamli qurilmalarni har qanday o'zgartirish, buzish yoki yo'qotish holatlaridan himoya qilishni o'z ichiga oladi. Mazkur jarayon raqamli dalillarni o'z ichiga olgan qurilmalarni aniqlash bosqichidan boshlab amalga oshirilishi hamda dalillar bilan ishlashning barcha keyingi bosqichlarida uzluksiz davom ettirilishi lozim. Eng maqbul holatda, dalilning o'zi yoki unga tegishli bo'lgan metadata (masalan, sana va vaqt belgilar) hech qanday o'zgarishga uchramasligi kerak. Raqamli dalillar bilan ishlovchi mutaxassis (DEFR — Digital Evidence First Responder) dalil yig'ilgan yoki olingan paytdan

¹ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, 21.11.2024-yil, O'RQ-1003-son <https://lex.uz/uz/docs/-7228758>

² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 204¹-modda <https://lex.uz/docs/-111460>

³ <https://srecon.com/types-of-digital-evidence/>

⁴ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 205-modda <https://lex.uz/docs/-111460>

⁵ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 208-modda <https://lex.uz/docs/-111460>

boshlab unga hech qanday o'zgartirish kiritilmaganligini asoslab bera olishi zarur. Agar dalillarda o'zgarishlar muqarrar ravishda yuz bergan bo'lsa, bunday o'zgarishlarning sabablari hamda amalga oshirilgan harakatlar tegishli tarzda hujjatlashtirilishi shart. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ayrim holatlarda raqamli dalillarning maxfiylikni ta'minlash talab etiladi. Bu talab biznes ehtiyojlari yoki amaldagi qonunchilik (masalan, shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish) bilan bog'liq bo'lishi mumkin⁶.

Raqamli dalillarning maqbullik mezonlari Jinoyat-protsessual qonunchiligimizda hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qarorida aniq belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, dalillar, shu jumladan raqamli dalillar agar:

1) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llagan holda;

2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo'li bilan;

3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

4) jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida;

5) noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan;

6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan olingan bo'lsa, ular dalil sifatida maqbul emas deb topiladi⁷.

Raqamli dalillarni baholashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar mavjud. Xususan, isbot qilish subyektlari raqamli dalillarni baholashda, **birinchi navbatda** dalil ishga aloqador bo'lishi lozim. Ya'ni, dalil ish uchun ahamiyatli bo'lishi, muayyan fakt yoki holatni aniqlashga xizmat qilishi lozim. **Ikkinchidan**, dalilning olingan manbasi ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Dalilning asl manbadan olinganligi va o'zgartirilmaganligi isbotlanishi zarur. Raqamli dalillar kontekstida bu, ularning yaratilgan vaqtidan boshlab o'zgartirilmaganligini yoki har qanday o'zgarishlar hujjatlashtirilganligini anglatadi. **Uchinchidan**, dalilning asl nusxasi yoki unga tenglashtirilgan ishonchli nusxasi taqdim etilishi lozim. Raqamli muhitda bu, odatda, original fayl yoki uning kriptografik jihatdan tasdiqlangan nusxasini anglatadi. **To'rtinchidan**, dalil sud muhokamasiga ortiqcha salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Ya'ni, uning keltirilishi adolatli qaror qabul qilishga to'sqinlik qiladigan darajada tarafkashlik yoki hissiy ta'sir uyg'otmasligi lozim⁸. Bu talablar JPK da ham keltirib o'tilgan.

Raqamli dalillar bilan ishlash jarayonida axloqiy mezonlar ham muhim o'rin tutadi. Isbot qilish subyektlari betaraflik, xolislik va yuqori mas'uliyat tamoyillariga qat'iy amal qilishi lozim. Xususan, tergov davomida ish uchun ahamiyatli bo'lmagan yoki ish uchun umuman aloqasi bo'lmagan shaxsiy

⁶ ISO/IEC 27037:2012. Information technology — Security techniques — Guidelines for identification, collection, acquisition, and preservation of digital evidence. Geneva, 2012. – P. 10.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 95¹-modda <https://lex.uz/docs/-111460>

⁸ Casey. E. Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers and the Internet. - 3rd Edition. – London: Academic Press, 2011. - P. 57.

xabarlar, oilaviy fotosuratlar yoki maxfiy ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, ulardan foydalanmaslik va ularni tarqatmaslik talab etiladi⁹.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun, ya'ni raqamli davrda axborot almashinuvi juda tez sodir bo'lmoqda. Kun sayin yangi turdagi texnologiyalar ishlab chiqarilishi va sun'iy intellekt jamiyatning barcha sohalariga tatbiq qilinayotganligiga guvoh bo'lyapmiz. Shu bilan birga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda jinoyatlarning sodir etilishi ham ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat va jamiyat manfaatlari, shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi va bu vazifa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuklatilgan. Ular bu vazifani bajarishda, aniqrog'i sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlashda va jinoyatlarni sifatli fosh qilishda raqamli dalillar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishlari, shuningdek, qonunchilikda va xalqaro standartlarda belgilab qo'yilgan talablariga qat'iy amal qilishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, 21.11.2024-yil, O'RB-1003-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qarori.
4. ISO/IEC 27037:2012. Information technology - Security techniques - Guidelines for identification, collection, acquisition, and preservation of digital evidence. Geneva, 2012.
5. Casey. E. Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers and the Internet. - 3rd Edition. - London: Academic Press, 2011.
6. Xamidov B.X. Raqamli dalillar va sud jarayoni: sudlarda yangi ko'nikmalarni shakllantirish zaruriyati // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. 2026. Vol. 04. Is. 01.
7. <https://srecon.com/types-of-digital-evidence/>

⁹ Xamidov B.X. Raqamli dalillar va sud jarayoni: sudlarda yangi ko'nikmalarni shakllantirish zaruriyati // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. 2026. Vol. 04. Is. 01. - B. 120.